

**MAKTAB O'QUVCHILARI RUHIYATIGA INTERNET
TARMOQLARINING IJOBIY VA SALBIY TA'SIRLARI**

Inamova Mayramxon Ergashaliyevna

*Namangan viloyati Mingbuloq tumani MMTB
ga qarashli 11-sonli umumiy o'rta ta'lif maktabi psixolog*

Bo'ranboyeva Zilola Ahmadjonovna

*Namangan viloyati Mingbuloq tumani MMTB ga
qarashli 47-sonli umumiy o'rta ta'lif maktabi psixolog*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o'quvchilarining internet tarmoqlaridan foydalanishi va turli xildagi telefon o'yinlarining bolalar ruhiyatiga ta'salbiy ta'siri, hamda ota-onalarning farzand tarbiyasidagi kamchiliklari, bolalarning telefon va internet tarmoqlariga qaramligining sabab va oqibatlari, hamda telefonga qaramlikni oldini olish bo'yicha psixologik tavsiyalar va maslahatlar keltirib o'tilgan

Kalit so'zlar: internet tarmoqlari, zararli oqibatlari, meesenjerlar, gadgetlar, qaramlik, tobelik, o'ziga xoslik, qobilyat, texnologogiya, ilm-fan, tafakkur, iqtidor, motivatsiya.

Kirish Axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida o'quvchilarga yetkazish qiyin. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar mustaqil ravishda o'z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin bo'ladi. Shu sababli o'quvchilarning hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan dars mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, undan oqilona foydalanishda ularga yordam berish zarur. Bugun hayotimizning barcha javhalarida axborot-kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarining kirib kelgani hamda jadal rivojlanish yo'liga o'tgani jamyatimizga ham katta o'zgarishlar olib kirdi. Kompyuter haqiqatdan ham keng tarmoqli vazifalarni bajaradi: Radio va musiqa eshitish, filmlar ko'rish, matn terish, rasmi ob'ektlar va animatsiyalar yaratish, telefon va kalkulyator vazifasini bajarish, global tarmoqlarga ulanish, kompyuter o'yinlarini o'ynash va hakazo. Barcha shakllardagi darsda va maktabdan tashqari ishlarining chuqur ichki mohiyati o'quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatga faol jalg qilish ularning tashabbusi va mustaqilligini rag'batlantirish, individual qiziqishlarini va qobiliyatlarini rivojlantirishdan ibortdir. O'quvchilarning o'qishdan tashqari ishlarga pedagogik rahbarlikning xususiyati ularga faqat dars mashg'ulotlarida emas, balki ijtimoiy tashkilotlar orqali, sinfdan va maktabdan tashqari har xil tadbirlar orqali amalga oshadi. Bugungi kunda katta extiyojga aylanib borayotgan narsa bu internet tarmoqlaridan samarali va unumli foydalanishni yoshlar ongiga singdirish, va bunda ota-onalarning maktab o'qituvchilari hamkorlikda

bolalarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilishga faqatgina zarurat bo'lsagina telefondan foydalanishlari mumkinligini ta'kidlab bolalar ongiga singdirib borish kerak. Bugungi kunga kelib o'sib kelayotgan yosh avlodni eng yaqin do'sti bu.. ming afsuslar bo'lsinki telefon, gadjet, planshet va televizorlarga aylanib qolmoqda. To'g'ri biz bolalarga bu narsalardan foydalanishni ta'qiqlab qo'yolmaymiz, lekin undan to'g'ri foydalanishni o'rgatmog'imiz lozim.

Asosiy qism Yoshlar hozirda texnologik bilimlarini kattalardan ko'ra tez hamda samarali egallamoqda va aytish mumkunki, kompyuter texnologiyasi savodxonligi bo'yicha kattalardan ustunlik ham qilishadi. Ular ta'lim jarayoni va mashg'ulotlar vaqtida o'qtuvchi nazaratida internetdan asosan ilm-fan, madaniyat va sportga oid malumotlarni oladi, o'rganadi. Bular xursand bo'ladigan ijobiy holatlar. Darslardan chiqib dars vaqtida ololmagan biron bir qiziq malumot, video rolik va shu kabi axborotni hohlagan internet kafedan hech kimning nazoratisiz ham topishi uni yuklab olishi mumkin. Kompyuter o'yinlarining bazilari o'smirlar intelektining rivojlanishiga, qiyin sharoitlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalrining shakllanishiga, mantiqiy fikirlashning oshishiga, ijodiy, ruhiy rivojlanishiga yordam beradi. Lekin hozirgi kunda jamiyatni kompyuterlashtirishning ijobiy tomonlari bilan birga bolalar va o'smirlarni kompyuter, internet va asosiysi kompyuter o'yinlariga haddan ortiq bog'lanib qolish holatlari ham kuzatilmoxda. Bolalar va o'smirlarda kompyuter o'yinlariga psixologik tobeylik ko'rinishiga o'tib ketmoqda. Kopyuter o'yinlariga tobe bo'lib qolgan o'smir real hayotdan, zerikishdan, yolg'izlikdan, hayot qiyinchiliklaridan qochish maqsadida kompyuter o'yinlariga murojaat qilishni boshlaydi.

"Psixologlarning ma'lumotlariga ko'ra, kompyuter o'yinlarini o'ynaydigan 10-15% insonlar ularga tobe bo'lib qolishar ekan. Tobelik asosida esa rohatlanishga nisbatan ehtiyoj yotadi. Mazkur tobelik har qanday yoshda paydo bo'lishi mumkin, biroq u o'smirlarda o'ta ta'sirli bo'ladi. Mutaxassislar tobelikning bunday turini o'ziga xos "Emotsional narkomaniya"ga taaluqli deb hisoblashadi. Kompyuterga tobelik og'ishgan xulq-atvor turlaridan biri hisoblanadi va u o'zining emotSIONAL ruhiy kayfiyatini o'zgartirish usuli yordamida kundalik tashvishlardan qochishga intilish holati bilan ifodalanadi. Bunday paytlarda bolaning psixikasi tormozlanadi, individual shaxsiy rivojlanishdan to'xtaydi. Internet tarmoqlari va turli xil virtual o'yinlarga tobelikni ortib ketishining asosiy sabablaridan biri bolalarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri taqsimlanmasligi va ota-onas nazaratidan chetda qolib ketishi. Barcha tobiylik vositalari hattoki kompyuter o'yinlari ham ijobiy hissiyotlarni paydo qiladi (xursandchilik, baxtiyorlik, rohat, ruhiy va jismoniy yengillikni sezish) va salbiy hissiyotlarini (havotir, hafalik, aybdorlik hissi, o'zini yolg'iz his etish) bartaraf etadi. Bolalar kompyuterni bir necha marta o'ynagandan so'ng kompyuter qahromoni va undagi virtual olam, unung real hayotidagi qondirilmagan ehtiyojini qondirishga imkon berayotkanini tushunadilar. Bu kompyuter qahromonini hurmat qilishadi, uning

fikirlariga qo'shilishadi, u kuchli, kuplab dushmanlari bir zumda yo'q qilib g'alaba qozona oladi. Bolalar uchun bu rolga kirish va o'zini "u" deb hisoblash yoqimlidir. Chunki ularning ko'pchiligi real hayotda o'zlarida bunday his-tuyg'uni his qilishlari qiyin.

Mutaxassislar bolalarning ijtimoiy tarmoqlarda doimiy aloqada bo'lishni istashi ular hali tayyor bo'lмаган emotsiнал stresslarni yengib o'tolmasligi va bu holat salbiy oqibatlarga olib kelishini ta'kidlamoqda. Angliya bolalar himoyasi tashkilotiga ko'ra, "like"lar soni bolalarga doimiy bosim va bezovtalik beradi. "11-12 yoshli mакtab o'quvchilariga" raqamlı texnologiya savodxonligi majburiy o'qitilishi kerak. Maktablarda internetdan to'g'ri foydalanishni o'rgatishadi, lekin emotsiнал ta'sir biroz chetda qoladi"- deydi Angliya bolalar himoyasi tashkilotidan Anni Longfild. Ba'zan his-tuyg'ulari to'liq shakllanib ulgurmagan bolalar taqdiri o'z joniga qasd qilish bilan tugashi ham mumkin. O'smirlar o'limi aynan ijtimoiy tarmoqlardagi bosim tufayli sodir bo'layotgani ilmiy isbotini topmagan bo'lsada, 2010-2015-yillarda ko'rsatkichlar keskin ko'tarilgan. Tadqiqotchilarning yana bir kuzatuvi - ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolganlar kuchli uyqusizlikka duchor. 13 ga kirmaganlar internetdan ko'p foydalanmaydi. Shunday bo'lsa-da, internet girdobiga tushib qolish juda oson. internet ko'plab foydali jihatlari bilan birga salbiy oqibatlarini ham namoyon qilmoqda. Aholida ayniqlsa yoshlarda axborot iste'moli madaniyatining sustligi, turli xabarlar oqimidan kerakligini ajratib olishda bilim, malaka va ko'nikmaning yetishmasligi ba'zilarning g'arazli kimsa va oqimlar ta'siriga tushib qolishlariga, internet qaramligi kasalligiga yo'liqishlariga sabab bo'lmoqda. Xitoy Xalq Repspublikasida internetga qaramlik kasallik sifatida e'tirof etilib, uni davolovchi maxsus shifoxonalar tashkil etilgani so'zimizning isbotidir. Global tarmoq natijasida yuzaga kelgan eng katta muammo, bu, albatta, qaramlik, tobelik kasalligidir. Yoshlarning ko'p vaqtini inernetda o'tkazishlari global muammoga aylanib ulgurgan. Bugun internet ayrim yoshlar uchun mashhur yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari qahramoni Hoshimjon topib olgan sehrli qalpoqchadir. Umuman, internetga qaramlikning eng og'ir jihatni real olamni, insoniylik burchi va vazifalarini unutishdir. Inson haqiqiy hayotda yashashi, halol mehnat qilishi, ilm olishi, zimmasidagi vazifalarini sidqidildan bajarishi, elu yurtiga fidoyilik bilan xizmat qilishi, atrofdagilarga foyda keltirishi zarur. Internetda ko'p vaqtini o'tkazadigan insonning ruhiyatida mavhumlik va o'z qobig'iga o'ralib olish holati kuzatiladi. Bu esa uni kelajakda "uchinchchi kuchlar" tomonidan manqurtlashishi, zombilashtirilishi uchun zamiin yaratadi. Bugungi kunda buzg'unchi guruqlar yoshlar ongiga ta'sir qilishda asosan internetdan foydalanayotganlari bejiz emas. Internetning yana bir salbiy jihatni-kishilardagi xudbinlik, manmanlik, zamonaviy tilda ifoda etganda, egosentrizm illatining kuchayishiga sabab bo'lishidir.

Xulosa qilib aytganda bugungi zamon yoshlari son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Bugun internet madaniyati, virtual madaniyat, axborot madaniyati, ma'lumotlardan to‘g‘ri foydalanish madaniyati kabi tushunchalar hayotimizdan muhim o‘rin egalladi. Yoshlarda internet olamida o‘z o‘rnini to‘g‘ri belgilash va foydalanuvchilar bilan to‘g‘ri muomala qilish, virtual olamdagи axborotlarni to‘g‘ri tahlil qilish malakasini shakllantirish davr talabidir. Bolalar hayotimizning mazmuni, eng muhim bo‘lagi ekanini aytishdan charchamasligimiz kerak. Albatta kompyuter va internet orqali begona insonlar masofadan farzandimiz ruhiyatini bilib olayotgan bo‘lsayu, nahotki biz ularni har kuni har soniya ko‘rib, kuzatib yurgan, qo‘lidan yetaklab katta qilayotkan ota-onasi bo‘la turib ularning pok va beg’ubor qalblarini, orzu istaklarini va extiyojlarini anglay olmasak... degan savolni har birimiz o‘zimizga berishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Deti s zaderjkoy psicheskogo razvitiya. T. A. Vlasova.N.A.Sipina tahriri ostida. M., 1984
2. K.S.Lebedinskaya, G.P.Bartbin, M.T.Dunayeva. Aktualniye
3. Problem diagnostiki zaderjki psicheskogo razvitiya detey.M.,Pedagogika, 1982
4. S.D.Zabramnaya. Otbor umtvenno otstalix detey v spetsialniye uchrejdeniya.M., Prosvesheniye, 1988
5. G.B.Shoumarov, K.K.Mamedov. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarning psixologik xususiyatlari va differensial diagnostikasi.Toshkent, 198
6. K.K.Mamedov, G.B.Shoumarov, V.P.Podobed.Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida. T., 1999 7.Mustafaqulova D. I., Usanov U.N.
7. D.I.Mustafaqulova. Darslarda muammoli o‘qitish texnologiyasi Ta’lim texnologiyalari 2016. Toshkent.